

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
№4 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI

Toshkent sh.
Rais – professor N.Q.Xaydarov
Kotib v.v.b. – dotsent Q.E.Shomurodov

06 dekabr 2022 yil

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

Kun tartibi:

1. T'yutorlar faoliyati va istiqbol rejalari
Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Yunusov R.A.
2. Tibbiy pedagogika va davolash fakultetida o'quv, o'quv uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari
Ma'ruzachi: Tibbiy pedagogika va davolash fakultet dekani Rizayev E.A.
3. Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi ilmiy-amaliy markazi qoshidagi ilmiy-amaliy laboratoriyalarning faoliyati, takomillashtirish yo'llari
Axborotchi: Ilmiy-amaliy markaz direktori t.f.d., dotsent Xramova N.V.
4. Professor o'qituvchilarni tanlov asosida saylash.
5. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
6. Turli masalalar

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: T'yutorlar faoliyati va istiqbol rejalari

Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Yunusov R.A.

QAROR QILINDI:

1. T'yutorlar ish samaradorligini oshirish maqsadida ularning faoliyatini baholash bo'yicha me'zon ishlab chiqilsin va tasdiqlansin;
Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor va barcha fakultet dekanlari
Muddat – 5 kun muddatda
2. Ushbu me'zonlar asosida tyutorlar faoliyati har 6 oyda tanqidiy o'rganilsin va o'z vazifasini talab darajasida bajarmayotgan deb topilgan tyutorga nisbatan intizomiy jazodan tortib mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralar ko'rilsin;
Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, hodimlar bo'limi boshlig'i
Muddat – doimiy
3. Na'munali faoliyat yuritayotgan tyutorlar rag'batlantirib borilsin;
Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi ikkinchi masala: Tibbiy pedagogika va davolash fakultetida o'quv, o'quv uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari

Ma'ruzachi: Tibbiy pedagogika va davolash fakultet dekani Rizayev E.A.

QAROR QILINDI:

1. Talaba yoshlarni mustaqil ta'lim olishlari uchun davolash ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha simulyatsion markazga mulyaj va simulyatorlar xarid qilish choralari ko'rsin;

Mas'ul – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – 1 oy muddatda

2. Ta'lim tizimida va dars berish metodologiyasida zamonaviy interaktiv usullar keng joriy etilsin;

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Tibbiy pedagogika va davolash fakultet dekani va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

3. Darslik, monografiya va elektron darsliklar yaratish jadallashtirilsin;

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Tibbiy pedagogika va davolash fakultet dekani va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

4. Xorijlik hamkor mutaxassislar bilan birgalikda ilmiy-amaliy anjumanlar, vebinar, seminar va master klasslar jadallashtirilsin, hamda hamkorlikdagi adabiyotlar yaratish kuchaytirilsin;

Mas'ul – Barcha prorektorlar va va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

5. Institut qoshida "media markaz" tashkil etilsin

Mas'ul – Yoshlar masalalari va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor va Matbuot kotibi
Muddat – 1 oy muddatda

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi uchinchi masala: Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi ilmiy-amaliy markazi qoshidagi ilmiy-amaliy laboratoriyalarning faoliyati, takomillashtirish yo'llari

Axborotchi: Ilmiy-amaliy markaz direktori t.f.d., dotsent Xramova N.V.

QAROR QILINDI:

1. Laboratoriyalar moddiy-texnik bazasi yaxshilansin;

Mas'ul – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – 1 oy muddatda

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2022 yildagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 307-sonli qarori bo'yicha ishlar optimallashtirilsin va laboratoriya nomi "Axborot texnologiyalari va pa tologik jarayonlarni prognozlash"dan "Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt" nomiga o'zgartirilsin;

Mas'ul – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor va Ilmiy-amaliy markaz direktori

Muddat – 1 kun muddatda

3. Laboratoriya xodimlari uchun pullik xizmatlar ro'yxatini tuzilib, bir-ikki yil muddat oralig'ida tijoratlashtirish mumkin bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqilsin;

Mas'ul – Ilmiy-amaliy markaz direktori va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

4. Har bir laboratoriya tomonidan institut veb-saytida maqsad, yo'nalish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'rsatilgan shaxsiy sahifa yaratilsin;

Mas'ul – Ilmiy-amaliy markaz direktori va Axborot texnologiya va texnik vositalar ta'limi markazi AKT boshlig'i
Muddat – doimiy

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi oltinchi masala: Turli masalalar

1. Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Ekspertlar hay'atining o'quv-uslubiy bo'lim va komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilsin

Mas'ul – O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, Toshkent davlat stomatologiya instituti o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert hay'ati raisi
Muddat – 3 kun muddatda

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish barcha prorektorlar (R.Yunusov, S.Baymakov, Q.Shomurodov, B.Yarmuhamedov) zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi



N.K.Xaydarov